Yoğingarçilik mavsumida sel va suv toşqinlari xavfini kamaytiriş, drenaj tarmoqlari holati hamda aholini xabardor qiliş çoralari töğrisida ma’lumot

Yoğingarçilik mavsumida aholi va hududlarni sel hamda suv toşqinlari bilan boğliq xavflardan muhofaza qiliş, gidrotexnika inşootlarining barqaror işlaşini ta’minlaş, suv ötkaziş tarmoqlaridagi tösiqlarni bartaraf etiş va kamçiliklarni tuzatiş, şuningdek, amalga oşirilayotgan işlar töğrisida jamoatçilikni öz vaqtida xabardor qiliş muhim vazifalardan hisoblanadi. Suv xöjaligi vazirligi tizimida mazkur yönalişlar böyiça taşkiliy, texnik va profilaktik tadbirlar amalga oşirilmoqda.

1. Sel-toşqin vaziyati va uning oqibatlari

Yil boşidan buyon mamlakatimizda 420 ta sel hodisasi qayd etilgan. Sel oqimlari natijasida jami 844 million kub metr suv oqib kelgan bölib, uning 361 million kub metri suv omborlarida zaxira qilingan. Eng köp sel hodisasi Namangan viloyatida – 224 ta, Jizzax viloyatida – 53 ta, Qaşqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida esa 38 tadan kuzatilgan.

Sel hodisalari oqibatida 85 ta xonadon, 208 ta tomorqa va ekin maydoni, 10 ta transport vositasi, 13 ta köprik, 26 ta köça va yöl, şuningdek, 3 ta ijtimoiy va boşqa obyekt zarar körgan.

Jumladan, 2026-yil 2-may kuni Jizzax viloyati Yangiobod tumani Balandçaqir qişloği hududida yoğingarçilik tufayli hosil bölgan sel suvlari Balandçaqirsoyga yönaltirilib, aholi xonadonlariga zarar yetkazmagan holda xavfsiz ötkazib yuborilgan. Farğona viloyatida may oyida yuz bergan sel hodisalari oqibatlarini bartaraf etişga esa tegişli xizmatlar va maxsus texnika jalb qilingan.

2. Xavfni kamaytiriş böyiça amalga oşirilgan işlar

Vazirlikning tegişli buyruği bilan sel oqimlari va toşqin suvlarini xavf-xatarsiz ötkazib yuboriş hamda suv xöjaligi obyektlarining xavfsiz işlaşini ta’minlaş çoralari belgilangan. Şu asosda suv omborlari, yirik gidrouzellar, nasos stansiyalari va xavf darajasi yuqori bölgan boşqa obyektlarda **keçayu kunduz navbatçilik yölga qöyilgan, tezkor işçi guruhlar hamda vazirlik va hududiy ştablar taşkil etilgan.**

2026-yilning 2–18 mart kunlari Suv xöjaligi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, içki işlar organlari va boşqa mas’ul tuzilmalar iştirokida xavf darajasi yuqori bölgan suv xöjaligi obyektlari, köpriklar va sel inşootlari joyiga çiqib örganilgan. Aniqlangan kamçiliklarni bartaraf etiş va inşootlarning işonçli faoliyatini ta’minlaş böyiça çora-tadbirlar rejasi işlab çiqilib, uning ijrosi nazoratga olingan.

Sel suvlarini xavfsiz ötkaziş maqsadida özanli suv omborlarining iş rejimi nazoratga olingan, zaxira elektr manbalari, texnika va mexanizmlar şay holatga keltirilgan, zarur materiallar zaxirasi yaratilgan. Daryo va soylarning şikastlangan qirğoqlarini mustahkamlaş, suğoriş va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalaş,

akveduklar, dyukerlar va boşqa gidrotexnika inşootlarida ta’mirlaş-tiklaş işlari taşkil etilgan.

2026-yilgi manzilli dastur doirasida 20 ta obyektda 3,5 kilometr kanal va 13 ta gidrotexnika inşootini rekonstruksiya qiliş hamda 11,2 kilometr qirğoqni mustahkamlaş uçun 41,3 milliard söm mablağ ajratilgan.

Suv omborlarida xavfsizlikni ta’minlaş maqsadida 17 ta suv omborida mahalliy darajadagi avtomatlaştirilgan ogohlantiriş tizimlari joriy etilgan, 16 ta suv omboriga 83 ta seysmik qurilma örnatilgan. Şuningdek, 47 ta suv va sel suv omborining texnik holatini yaxşilaşga qaratilgan 96 ta tadbir amalga oşirilgan.

Vazirlikning tegişli buyruği bilan favqulodda vaziyatlarda foydalaniladigan moddiy resurslar zaxirasini şakllantiriş tartibi, şuningdek, 2026–2027 yillarga möljallangan çora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan.

3. Aholi xavfsizligi va tuşuntiriş işlari

Vazirlikning tizim taşkilotlari tomonidan favqulodda vaziyatlar organlari, içki işlar tizimi, mahalliy hokimliklar va mahallalar bilan hamkorlikda joylarda sel-toşqin xavfi, favqulodda vaziyatlarda töğri harakat qiliş tartibi va suv obyektlarida xavfsizlik qoidalariga rioya etiş böyiça davra suhbatlari, tuşuntiriş işlari, profilaktik reydlar hamda tarğibot tadbirlari ötkazib borilmoqda.

Şuningdek, fuqarolarning suv obyektlarida xavfsizligini ta’minlaş maqsadida 65 ta suv omborida 455 ta, magistral kanallarda 4 109 ta ogohlantiruvçi va taqiqlovçi belgi örnatilgan. Magistral kanallarda 574 ta tuşiş zinasi, 221 ta qutqaruv halqasi va 371 ta qutqaruv arqoni joylaştirilgan. Ayrim hududlarda 12,4 kilometr himoya tösiqlari örnatilgan. Bu çoralar suv obyektlaridagi baxtsiz hodisalarning oldini olişga qaratilgan.

Kuzgi yoğingarçiliklar boşlanişi munosabati bilan sel va suv toşqinlari xavfi mavjud hududlarda aholini barvaqt ogohlantiriş işlarini kuçaytirişga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ob-havo prognozlari muntazam kuzatib borilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Gidrometeorologiya agentligi va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda rasmiy ogohlantirişlar aholiga tezkor yetkazilmoqda.

Şu örinda, aholiga favqulodda holatlarda 112 raqamiga qönğiroq qiliş va faqat tasdiqlangan rasmiy ogohlantirişlarga tayaniş tavsiya etiladi.

Suv xöjaligi obyektlarini
ekspluatatsiya qiliş agentligi